

INGLIZ VA O'ZBEK KINODISKURSINING NAZARIY HAMDA AMALIY JIHATLARI

Barotova Nigina Sharofovna

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

niginabarotova1990@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17149743>

Annotatsiya. Mazkur tezisda kinodiskurs tushunchasi va uning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Diskursning umumiy ta'rif, turlari hamda kinodiskursning o'ziga xos xususiyatlari M. Fuko, T. van Deyk va Yu. Lotman qarashlari asosida tahlil qilinadi. O'zbek va ingliz kinodiskursi qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning lingvokulturologik farqlari va umumiy tomonlari ochib beriladi. O'zbek kinodiskursida milliy qadriyatlar, tarixiy mavzular va ma'naviy meros yetakchilik qilsa, ingliz kinodiskursida individualizm, global muammolar va ommaviy madaniyat ustunlik qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kinodiskurs jamiyat tafakkurini shakllantirish, ijtimoiy ongni tarbiyalash va milliy identitetni namoyon etishda muhim vosita sifatida talqin qilinadi.

Kirish. Kino san'ati XX asrning eng muhim madaniy hodisalaridan biri sifatida jamiyat tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy ongini shakllantirishda beqiyos rol o'ynadi. Kino nafaqat estetik zavq bag'ishlaydigan san'at turi, balki ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni targ'ib qiluvchi kuchli vositadir. Shu jihatdan, kinoni diskursiy maydon sifatida tadqiq etish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Diskurs tushunchasi tilshunoslik va falsafada keng qo'llanadi. M. Fuko diskursni "bilim, hokimiyat va ijtimoiy munosabatlarning namoyon bo'lish shakli" sifatida talqin qiladi. T. Van Deyk esa diskursni kommunikatsiya jarayonida matn, kontekst va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri deb izohlaydi. Diskursning asosiy turlari: siyosiy, ilmiy, diniy, badiiy, reklama va kino diskursidir.

Kinodiskurs – bu kino san'atida matn, vizual obraz, musiqiy va dramatik vositalarning uyg'unligi asosida shakllanadigan ijtimoiy-madaniy muloqotdir.¹ U faqat film matni yoki dialoglariga emas, balki kadr kompozitsiyasi, aktyorlar o'yini, ramz va belgilar tizimiga ham bog'liqdir. Yu. Lotman kinoni semiotik tizim sifatida talqin etib, unda madaniyat kodlari mujassamligini ko'rsatadi.² Kinodiskurs va diskurs tushunchalari farqiga keladigan bo'lsak, diskurs – kengroq tushuncha bo'lib, turli muloqot turlarini o'z ichiga oladi. Kinodiskurs esa aynan kino san'atidagi kommunikatsiyani qamrab oladi. Agar diskursda matn asosiy vosita bo'lsa, kinodiskursda tasviriy va eshitiladigan kodlar asosiy vosita bo'ladi.

Kinodiskurs turli millatlarda turli qadriyatlar bilan ajralib turadi va buni o'zbek va ingliz kinodiskurs namunalarida ko'rishimiz mumkin. O'zbek kinodiskursi, avvalo, milliy qadriyatlarni, tarixiy mavzularni va xalq an'analarini ifodalash orqali o'ziga xoslik kasb etadi. O'zbek kinosida mahalliy hayot tarzi, urf-odatlar, oila va jamiyatdagi o'zaro munosabatlar alohida o'rin tutadi. Masalan, "Mahallada duv-duv gap" yoki "To'ylar muborak" kabi filmlarda xalqona hazil, mahalla hayoti, odamlar orasidagi ijtimoiy muloqot hamda turmush tarzining milliy xususiyatlari yorqin tasvirlangan. Bu filmlar orqali tomoshabin nafaqat kulgu va zavq oladi, balki o'zining madaniy ildizlari va ijtimoiy qadriyatlari haqida ham o'ylab ko'radi. Mustaqillik davridan so'ng o'zbek kinodiskursi yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy identitetni mustahkamlash, tarixiy qahramonlar merosini keng ommaga yetkazish va ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni targ'ib qilish kino san'atining

¹ Nafasov, D. (2020). "O'zbek kino diskursida milliy qadriyatlarning ifodalanishi". Filologiya masalalari, №2, 67-bet

² Lotman, Y. M. (1990). Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. London: I. B. Tauris.

ustuvor vazifasiga aylandi.³ Masalan, “Alisher Navoiy”, “Abdulla Qodiriy”, “Temuriylar davri” kabi filmlar o‘zbek tarixining buyuk siymolari va ularning ma’naviy merosini yosh avlodga tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, “Istiqlol yillari” da suratga olingan ko‘plab filmlar milliy ozodlik, erk va mustaqillik g‘oyalari targ‘ib qilishga qaratilgan bo‘lib, jamiyatda vatanparvarlik ruhini kuchaytirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, o‘zbek kinodiskursida zamonaviy muammolar ham o‘z aksini topadi. Masalan, oilaviy muammolar, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy tengsizlik, axloqiy qadriyatlarning yo‘qolib borishi kabi mavzular turli janrdagi filmlarda ko‘tariladi. “Ota”, “Baron”, “Yondiradi qalbni” singari filmlar nafaqat badiiy mahorati, balki jamiyatdagi dolzarb masalalarni ko‘tarishi bilan ham alohida e’tiborga molikdir. Umuman olganda, o‘zbek kinodiskursi milliy ruh, ma’naviyat va tarixiy xotirani saqlash bilan bir qatorda, jamiyatning zamonaviy muammolarini ham o‘zida aks ettiradi. Bu esa kinoni nafaqat san’at, balki ijtimoiy-ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham qadrlil qiladi.

Ingliz kinodiskursi o‘zining keng qamrovli mavzulari, global auditoriyaga mo‘ljallanganligi va janr xilma-xilligi bilan ajralib turadi. U ko‘proq individualizm, shaxsiy erkinlik, insonning ichki dunyosi, zamonaviy muammolar hamda fantastik g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi. Masalan, J. K. Rowling asarlari asosida yaratilgan “Harry Potter” filmlarida ingliz madaniyatiga xos ta’lim tizimi, qadimiy mifologik obrazlar va ijtimoiy sinf farqlari bilan birga, butun dunyo tomoshabiniga tanish bo‘lgan universal mavzular — do‘stlik, sadoqat va yovuzlikka qarshi kurash tasvirlangan.

Ingliz kinodiskursining yana bir xususiyati – tarixiy voqealarni badiiy talqin qilishdir.⁴ Masalan, “The King’s Speech” filmida qiroli Jorj VI hayoti orqali ijtimoiy mas’uliyat, liderlik va shaxsiy kamchiliklarni yengib o‘tish masalalari yoritiladi. “Elizabeth” yoki “Dunkirk” filmlarida esa Angliya tarixidagi burilish davrlari dramatik sahnalar orqali qayta jonlantiriladi. Bu tur filmlar ingliz jamiyatining tarixiy xotirasini saqlash va yosh avlodga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, ingliz kinodiskursi global miqyosda ommalashgan janrlar — detektiv, triller va dramatik filmlar bilan ham mashhur. Masalan, “Sherlock Holmes” filmlari ingliz adabiyoti va detektiv an’anasini zamonaviy kino orqali qayta talqin qilib, milliy obrazni jahon kinematografiyasiga olib chiqdi. Shuningdek, “James Bond” filmlari ham nafaqat ingliz kinoning vizit kartasi, balki xalqaro siyosiy va ijtimoiy g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi ommaviy madaniyat mahsuliga aylandi. Ingliz kinodiskursi ko‘pincha global muammolarni ham yoritadi: ekologiya, texnologiya, siyosiy qarama-qarshiliklar yoki inson huquqlari. Masalan, “The Imitation Game” filmida nafaqat matematik Alan Turingning hayoti, balki inson huquqlari, gender tengligi va jamiyatdagi tolerantlik masalalari ham ko‘tarilgan. Shu orqali ingliz kinodiskursi milliy madaniyat bilan bir qatorda, butun insoniyat uchun dolzarb bo‘lgan mavzularni ham qamrab oladi. Umuman olganda, ingliz kinodiskursi milliylik va globalizmni uyg‘unlashtirib, bir tomondan Britaniya tarixini va madaniyatini aks ettirsa, boshqa tomondan xalqaro auditoriya uchun ham tushunarli bo‘ladigan mavzularni ilgari suradi.

Ikki millat kinodiskursini qiyoslaydigan bo‘lsak, o‘zbek kinodiskursi ko‘proq milliy qadriyat va tarixga tayanadi, ingliz kinodiskursi esa global auditoriya va bozor talabiga yo‘naltiriladi. O‘zbek kinoda ijtimoiy hamjihatlik, an’ana va axloqiy g‘oyalar ustun bo‘lsa, ingliz kinoda shaxsiy erkinlik, fantastika va texnologik yangiliklar yetakchilik qiladi. Har ikkala kinodiskurs ham milliy

³ Saidov, A. (2019). O‘zbek kinosida tarixiy obrazlar va ularning badiiy talqini. Toshkent: Ma’naviyat

⁴ Chapman, J. (2005). Past and Present: National Identity and the British Historical Film. London: I.B. Tauris.

madaniyatning o'ziga xos jihatlarini saqlagan holda, dunyoqarashni kengaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak kinodiskurs – bu millatning madaniy identitetini ifoda etuvchi, jamiyat tafakkurini shakllantiruvchi va ijtimoiy ongni tarbiyalovchi hodisadir. O'zbek kinodiskursi milliy ruh va qadriyatlarga asoslanib, tomoshabinning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ingliz kinodiskursi esa global madaniyat va bozordagi talablarni hisobga olib, xalqaro miqyosda ta'sirchanlik kasb etadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki diskurs turli madaniyatlarni ifoda etsada, umumiy jihati – kino orqali jamiyatga ta'sir o'tkazish va g'oyaviy tarbiya berishdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Foucault, M. (1972). *The Archaeology of Knowledge*. London: Tavistock.
2. Van Dijk, T. A. (1997). *Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction*. London: SAGE Publications.
3. Lotman, Y. M. (1990). *Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture*. London: I. B. Tauris.
4. Stam, R. (2000). *Film Theory: An Introduction*. Oxford: Blackwell.
5. Monaco, J. (2009). *How to Read a Film: Movies, Media, and Beyond*. Oxford: Oxford University Press.
6. Баротова, Н. (2025). Анализ причин возникновения антропоцентрической парадигмы в современной лингвистике. *Лингвоспектр*, 5(1), 141–146. извлечено от <https://lingvospekt.uz/index.php/Ingsp/article/view/827>
7. Barotova, N. . (2025). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ЛАНДШАФТ И ЕГО ИСТОРИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ В УЗБЕКСКОМ КИНОДИСКУРСЕ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 5(8), 30–35. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/58932>
8. Barotova Nigina Sharofovna "LINKS BETWEEN CULTURE AND LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD IN MODERN LINGUISTICS" (2025). *Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy*, 1(5), 28-35. <https://usajournals.org/index.php/6/article/view/786>
9. Barotova, N. (2025). APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF PARADIGMS IN LINGUISTICS AND THEIR SIGNIFICANCE. В CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES (Т. 4, Выпуск 12, сс. 85–88). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16717400>
10. Barotova, N. (2025). OLAMNING LISONIY MANZARASINI HOSIL QILISHDA KOGNITIV-SEMANTIK VOSTILARNING ROLI. В THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES (Т. 4, Выпуск 15, сс. 117–121). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15657443>
11. 10. Shoazimov, S. (2010). *O'zbek kino san'ati tarixi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
12. 11. Yusupov, A. (2018). "O'zbek kino tili va milliy mentalitet". *O'zbek tili va adabiyoti jurnali*, №3, 45–52-bet.
13. 12. Saidov, A. (2019). *O'zbek kinosida tarixiy obrazlar va ularning badiiy talqini*. Toshkent: Ma'naviyat.
14. 13. Cook, P. & Bernink, M. (1999). *The Cinema Book*. London: BFI Publishing.
15. 14. Higson, A. (2003). *English Heritage, English Cinema: Costume Drama Since 1980*. Oxford:

Oxford University Press.

16. 15. Chapman, J. (2005). Past and Present: National Identity and the British Historical Film. London: I.B. Tauris.

17. 16. Kazmi, F. (1999). The Politics of Popular Culture: Beyond Hollywood and Bollywood. London: SAGE.

18. 17. Nafasov, D. (2020). "O'zbek kino diskursida milliy qadriyatlarning ifodalanishi". Filologiya masalalari, №2, 67-bet